

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2
0
2
4



No 5

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 528 sahifa.

E'lon qilishga 2024-yil 30-mayda ruxsat etildi.

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
Axmedov Sayfullo Normatovich i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori
Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d. TDIU professori
Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori
Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori
Musyeva Shoirazimovna, SamDu IS instituti professori
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., TAQU katta o'qituvchisi
Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti
Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti
Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti
Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.



MUNDARIJA

Uy-joy qurilishi madaniyati, uning o'ziga xos xususiyatlari va tamoyillari.....	10
Davletov Islambek Xalikovich, Zikrullayev Valixon G'aybullayev o'g'li	
Hududlar investitsiya muhitini oshirish muammolari.....	16
Akbarov Bekmurod Miryakubovich	
Qoraqalpog'iston Respublikasi ellikqal'a tumanida turizm klasterini joriy qilish mexanizmi.....	22
Norchayev Asatullo Norbo'tayevich	
Small Business and Private Entrepreneurship is the Priority Direction of Our Country's Economy.....	28
Tulagan Tukhtaraliev, G'aniev Muhammadjon Xalilovich	
Resurs soliqlarini soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish.....	31
Tursunova Zulayxo Abdujobir qizi	
O'zbekistonda muqobil energiya manbalaridan foydalanish elektrotexnika sanoati rivojlanishining istiqboli sifatida.....	34
Uraimjonov Azizbek Raxmonjon o'g'li	
Oliy ta'limning raqobatbardoshligini ta'minlashda ta'lim sifatining mohiyati va asosiy tamoyillari (O'zbekiston misolida).....	40
Egamov Sevinchbek Maxsud o'g'li	
Financial Mechanisms of Supporting Textile Products Export.....	46
Gaybullayeva Gulbaxor Maxmudovna, Yakubova Ugiloy Mamasoliyeva	
O'zbekiston Respublikasida hududlarni mutanosib barqaror rivojlantirish masalalari va yechimlari.....	49
Hojiyev Tal'at Toshpo'latovich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida ayollar biznesini shakllantirish yo'llari.....	54
Ibodullayeva Malohat Sirojiddin qizi	
Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda qishloq xo'jaligini rivojlantirishning xorijiy tajribasi.....	57
Bekmirzayev Mirzoxid Adashaliyevich	
Turizm sohasi rivojlanishining istiqbollari.....	61
Ergashev Rahmatulla Xidirovich, Jabborova Zuhra Abdig'ani qizi	
Jahonda kabel bozorini rivojlantirish xususiyatlari va tendensiyalari.....	68
Uralov Olimjon Mahammadjonovich	
Namangan viloyatida yoshlarning iqtisodiy faolligi ko'rsatkichlari dinamikasini tahlil qilish.....	72
Mirzatov Baxtiyor Toxirovich	
Turizm sohasiga malakali kadrlar tayyorlashdagi muammolar va ularning yechimlari borasida tavsiyalar.....	77
A. I. Raxmatov	
Трансформация внешнеторговых связей Республики Узбекистана.....	83
Ахмедова (Жабборова) Нилуфар Икболжон кизи	
Korxonalarda investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari va usullarining tahlili.....	88
Kuziyeva Nargiza Ramazanovna, Xusanov Faxriddin Jamoliddin o'g'li	
Turizmning mohiyati xususida nazariy yondoshuvlar va ularning tahlili.....	94
R. I. Pardayev	
Katta hajmga ega bo'lgan maxsus qurtxonalarda boqilayotgan ipak qurtlariga harorat va namlikni ta'siri.....	101
Raxmanova Xurinisho Egamovna	
Mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirishda mahalliy soliqlar va soliqdan tashqari tushumlarning ahamiyati.....	104
Rajjaboyeva Dildora Zakirovna	
Banklarda stress-test asosida ESG-risklarni baholash.....	110
Nilufar Sharipova	
Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda banklarda ekologik va ijtimoiy risklarni baholash va boshqarish tizimini joriy etishning ahamiyati.....	114
Karimov Shamsiddin Akram o'g'li	



Qimmatli qog'ozlarni qiymatini baholash usullari va modellari.....	122
Botirxo'ja Aziza Faxmuddin qizi	
Sanoat ishlab chiqarishda diversifikatsiyaning nazariy asoslari.....	127
Davronbek Sharibjonovich Raximov	
Mamlakatimizda innovatsiyalarni moliyalashtirishning amaldagi holati tahlili.....	133
Aminov Farrux Farxadovich	
Raqamli iqtisodiyotda moliyaviy hisobot tahlilini takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	138
G. J. Jumayeve	
Qurilish sohasida logistika tizimlariga zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlanganlarning amaliy jihatlari....	141
Mirsodiqov Abdulla Tursunaliyevich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida inson kapitalini boshqarishdagi muammolar	146
Nematova Shaxlo Egamberdiyevna	
Aholi daromdlari va omonatlarini shakllantirishning nazariy asoslari.....	149
Xakimov Zohid Norbo'tayevich	
Tasvirlarga raqamli ishlov berish jarayonini intellektuallashtirish algoritmini yaratish.....	158
Zoirov O'lmas Erkin o'g'li	
Mintaqa iqtisodiyotida investitsiya faoliyatini moliyalashtirish samaradorligini baholash	164
Chilmatova Dilnoza Abdurahimovna	
Возможности внедрения и развития исламских банковских продуктов в рынок Узбекистана.....	168
Иноятова Камола Фуркатовна	
Davlat xizmatchisi faoliyatida ijtimoiy javobgarlikning o'rni	172
X. X. Ikramov	
Korporativ boshqaruv tizimida buxgalteriya hisobini tashkil qilishning o'ziga xos xususiyatlari	176
Abdug'aniyev Muhammadamin Abdug'affor o'g'li	
Hududiy kambag'allik chegaralarini aniqlashning ahamiyati (Qashqadaryo viloyati misolida).....	182
Hamdamov Shahzod Ilhom o'g'li, Alisher Yunusaliyevich Safarov	
Kichik biznesga mahalliy investitsiyalarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanishda franshizaning roli	189
Rabimqulov Sherzod Murtozayevich	
Tijorat banklarida marketing strategiyalaridan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari.....	193
Maxamadjanov Akbar Maxamadaliyevich	
Davlat sherikchilik asosida maktab va maktabgacha ta'lim moliyashtirishligini o'ziga xos xususiyatligi.....	198
Boltaboev Murodbek Aybekovich	
Moliyaviy savodxonlikni rivojlantirish davr talabi	203
X. I. Boyev	
Banklarda chakana kreditlash turlari va ularni raqamli transformatsiya qilishning zarurligi.....	207
Axmedova Dilrabo Kurbondurdi qizi	
Rasmiy ish bilan bandlik – aholining munosib turmush darajasini ta'minlash demak.....	216
Farhod Bagibekovich Xalimbetov	
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i uchun qo'llaniladigan soliq imtiyozlarining amaldagi holati va tahlili.....	220
Valiyeva Sayyora Xushbaqovna	
Автомобильная промышленности развитых стран: становление, развитие, пути совершенствования.....	227
Назарова Раъно Рустамовна, Абдухамидова Мафтуна Турсуналт кизи	
Влияние цифровизации на внешнеэкономическую деятельность	232
Шерматовата Ирода Ойбековна, Тиллаев Хуршиджон Сулаймон ўғли	
ИИ в банковском бизнесе: ключ к конкурентной привлекательности	238
Фаттахова Муниса Абдухамитовна	
Tijorat banklari kapitalining iqtisodiy mazmuni va uning tarkibi	243
Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li	



Особенности банковского кредитования и факторы препятствующие финансово-кредитной поддержке субъектов сферы туристических услуг	248
Розоков Мухаммадазиз Мансурович	
Factoring Operations in Banks.....	253
Boykabilova Iroda, Davronova Dilnoza Damirovna	
Moliyaviy sektordagi aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ strategiyasini shakllantirishda risklarni bartaraf etish.....	257
Jaxongirov Rustam Jaxongirovich, Xo'jamurodov Asqarjon Jalolovich	
O'zbekistonning jozibador investitsiya muhitini yaratishda huquqiy asoslarni yanada takomillashtirishning ilmiy va amaliy zaruriyati	264
Oybek Elmuratov	
Qurilish materiallarini ishlab chiqarish korxonalarning boshqarish tizimini takomillashtirish.....	268
Uzakova Umida Ruzievna	
Tashkent Economy – Locomotive of the Country's Economy	274
Akramova Aziza Abduvohidovna, Maqsudov Bunyod Abdusamadovich	
O'zbekiston Respublikasida ishbilarmonlik turizmining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish yo'llari.....	278
Musayeva Shoirazimovna, Usmonova Dilfuza Ilhomovna	
Mintaqalar iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlashda investitsiyalardan samarali foydalanish mezonlari va ularni hisoblash usullari	284
Norqobilov Nusrat Norsaitovich	
Marketing strategiyasi: raqobatchilik sharoitida tadbirkorlik faoliyatini yuritishning rivojlantirilishi	288
Kutbitdinova Moxigul Inoyatovna, Matrizayeva Dilaram Yusubayevna	
Mahalliy budjetlar mablag'laridan samarali foydalanishni ta'minlashning eng asosiy istiqbolli yo'nalishi	295
S. Y. Ismoilova	
Atrof-muhitga zararsiz, tabiiy tarkibli korroziya ingibitorlari turlarini tahlil qilish	300
Qurbonova Firuza Solexovna	
Oliy ta'lim muassasalarida xarajatlar smetalari ijrosi hisobini yuritish tartibi	306
AbdulAziz Norqo'chqorov Ziyadullayevich	
Tijorat banklarining investitsion faoliyati samaradorligi va uni rivojlantirish yo'llari	312
Olimova Nodira Xamrakulovna	
Baholangan majburiyatlar hisobini takomillashtirish	324
Ochilov Farxodjon Shavkatjon o'g'li	
Qurilish-pudrat tashkilotlarida auditorlik tekshiruvda faoliyat uzluksizligini baholash.....	331
Tulovov Erkinjon To'liqin o'g'li	
Основные направления развития инвестиционной деятельности предприятий.....	335
Махкамова Надира Саидмуратовна	
Milliy statistika axborot tizimlarining funksional jihatlari va o'ziga xos xususiyatlarining tahlili	340
Otajonova Gulhayo Maqsud qizi	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini boshqarish axborot tizimini modellashtirish	345
Xudoyorov Laziz Niyojovich, Ergashova Nargiza Boboxonovna	
Mamlakatimizda aksiz to'lanadigan tovarlarni soliqqa tortish usullari	351
Alimardonov Muxammadi Ibragimovich, Qarshiyev Daniyar Eshpulatovich	
Iqtisodiy rivojlanish sharoitida investitsiya loyihalarini jalb qilgan mablag'lar orqali moliyalashtirishning zarurligi.....	357
Amonova Dilafroz O'tkurovna	
To'lov tashkilotlarini tashkil etishda xatarlarni boshqarish	362
Axmedov Miraziz Alisherovich	
Korxonada inson kapitalini rivojlantirish tizimi va konsepsiyasini takomillashtirish imkoniyatlari	367
Hamrokulov M. O.	



Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida kichik sanoat zonalarini faoliyatining zarurligi va iqtisodiy-huquqiy maqomi.....	375
Shodmonqulov Kamoliddin Murodilloevich	
Bank tizimida marketing faoliyati orqali yangi innovatsion xizmatlarni joriy etishning zamonaviy holati.....	379
Raxmatov Temur Sotiboldiyevich	
Экономическая сущность инновационной деятельности в банковском секторе	388
Шадиева Дилдора Хамидовна	
Yengil sanoat taraqqiyotining xitoy tajribasi va undan o'zbekistonda foydalanish imkoniyatlari	392
Jumaniyazova Feruza Rajabovna	
Tut parvonasi zararkunandasining biologik tarqalishi va zararini oldini olish choralari.....	402
Oybek Toshtemirovich Karimov	
Ijtimoiy adolat va ayollar huquqlari: kasbiy kamsitish	406
Iminova Nargizaxon Akramovna	
Ishsizlik nafaqalari tayinlash va xalqaro tajriba.....	412
Sholdarov Dilshod Azimiddin o'g'li	
Takroriy ekinlar urug'ini to'g'ridan-to'g'ri nol ishlov berish orqali ekadigan qurilmaga tushadigan yuklamaning nazariy tadqiqoti.....	418
Abdullayev Baxodirjon Valijon o'g'li	
Banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish tizimining roli.....	422
Abdullayeva Dildora Quدراتovna	
Biologik aktivlar hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartari asosida tashkil etishning uslubiy jihatlari	425
Adxamov Samariddin	
Barqaror iqtisodiy o'sishga erishishda to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarning ahamiyati.....	430
Asqarova Mavluda Turabovna, Otajonova Charosxon Polvonquli qizi	
Ilmiy-innovatsion iqtisodiyotda suv xo'jaligini rivojlantirish muammolari, yechimlar va natijalar: fundamental asosda.....	435
Babadjanov Abdirashid Musayevich	
Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini yuritishning milliy va xalqaro standartlari.....	441
Maxamadaliyeva MahliyoXon Maxamadmurod qizi	
Tijorat banklari aktivlari va ularni samarali boshqarish nazariy asoslari.....	448
Masharipov Maxmud Bekturdiyevich	
Tijorat banklarning moliyaviy faoliyatida yuzaga keladigan xavf-xatar va uning mohiyati	453
Rashidov Raximjon Iskandarovich, Abduraxmonov Anvar Akbar o'g'li	
Kichik sanoat zonalarini barpo etish va rivojlantirish omillari va hozirgi holatining tahlili	459
Samijonov Musobek G'ayratjon o'g'li	
Moliyaviy menejment tizimi samaradorligini oshirishda raqamli marketing strategiyasidan foydalanish	466
Sobirjonov Sanjar Sobirjonovich	
O'zbekiston Respublikasi moliyaviy tizimida byudjetdan tashqari jamg'armalarning ahamiyati va o'rni.....	473
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Babanazarova Gulzar Ziuatdinovna, Ajibayeva Raiya Maxsudovna	
Aholi daromadlarini oshirishda asalarichilikning o'rni	479
Xudayarova Zuxra Yuldashevna	
Цифровые и традиционные методы сбора информации в маркетинговых исследованиях: сравнительный анализ.....	482
Бекназова Комилахон Миркамол кизи	
Tijorat banklari faoliyatida iqtisodiy risklar va ularni nazariy asoslari.....	490
Burxonov Asliddin Asqar o'g'li	
Biznes tuzilmalarini diversifikatsiya qilish modellari va usullari hamda innovatsion rivojlanish strategiyalarining qiyosiy tavsifi.....	497
Matyoqubova Dilfuza Olimboyevna	



Тенденции развития пищевой промышленности Узбекистана.....	503
Назарова Раъно Рустамовна, Нигматуллаева Гульчехра Нуруллаевна	
Soliq-bojxona siyosatining dolzarb masalalari va ularni takomillashtirish yoʻnalishlari.....	509
Usmonov Kaxramonjon Akbaraliyevich	
Статистический анализ факторов, влияющих на бренд молока и молочных продуктов в Узбекистане	513
Холдарова Фариза Тухтабаевна	
Правовое регулирование рынка цифровых активов и криптовалют.....	519
Якубова Ш. Ш., Рашидов Рахимжон Искандарович	



BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA ERISHISHDA TO'G'RIDAN TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNING AHAMIYATI

Asqarova Mavluda Turabovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Iqtisodiyot fakulteti,
“Makroiqtisodiy siyosat va prognozlashtirish” kafedrası dotsenti

Otajonova Charosxon Polvonquli qizi

“Makroiqtisodiy siyosat va prognozlashtirish” kafedrası
1-kurs tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada barqaror iqtisodiy o'sishga erishishda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning o'rni, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning afzalliklari hamda kamchiliklari, shuningdek, iqtisodiyotimizga jalb qilinayotgan xorijiy investitsiyalarning tahlili, iqtisodiyotimizga jalb qilinayotgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning faollik darajasini yanada oshirish borasida amalga oshirilayotgan hamda bajarilishi lozim bo'lgan ishlar bo'yicha taklif va tavsiyalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: investitsiya, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, portfel investitsiyalar, investitsion jozibadorlik, barqaror iqtisodiy o'sish.

Abstract: In this article, the role of foreign direct investment in achieving sustainable economic growth, the advantages and disadvantages of foreign direct investment, as well as the foreign investments that are attracted to our economy analysis of investments, proposals and recommendations on the work being carried out and to be carried out in order to further increase the level of activity of foreign direct investments attracted to our economy.

Key words: investment, foreign direct investments, portfolio investments, investment attractiveness, sustainable economic growth.

Аннотация: Вданной статье рассматривается роль прямых иностранных инвестиций в достижении устойчивого экономического роста, преимущества и недостатки прямых иностранных инвестиций, а также иностранных инвестиций, которые привлекаются в нашу экономику, анализ инвестиций, предложения и рекомендации по проводимой работе. осуществляются и будут осуществляться в целях дальнейшего повышения уровня активности прямых иностранных инвестиций, привлекаемых в нашу экономику.

Ключевые слова: инвестиции, прямые иностранные инвестиции, портфельные инвестиции, инвестиционная привлекательность, устойчивый экономический рост.

KIRISH

Barchamizga ma'lumkin barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi turmush farovonligini yaxshilash, ularning ish bilan bandligini ta'minlash, jahon bozorlarida munosib o'rinlarga erishish, eksport solahiyatini oshirish, nafaqat iqtisodiyot balki ta'lim, sog'liqni saqlash, transport, axborot, infratuzilma va shu kabi sohalarini rivojlantirish rivojlanayotgan mamlakatlarda juda katta mablag'alarni talab etadi. Bunday islohotlarni amalga oshirishda rivojlanayotgan mamlakatlarning ichki moliyaviy manbalarining o'zi esa yetmaydi. Bunday holatlarda eng muqobil yechim xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hisoblanadi.

Jahon tajribalariga ko'ra, qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo'lsa, o'z iqtisodiyotining barqaror o'sishiga hamda rivojlanishiga erishgan.

Mamlakatimizda ham mustaqillikning dastlabki yillaridanoq mamlakatda faol investitsiya muhiti yaratish, ayniqsa faol xorijiy investitsiyalarni jalb qilish borasida juda ko'plab ishlar, dasturlar, loyihalar amalga oshi-



rilib kelinmoqda. Xorijiy investorlar uchun qulay imkoniyatlar, iqtisodiy-moliyaviy imtiyozlar berib kelinmoqda. Bunga misol tariqasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 28-dekabrdagi Oliy Majlis deputatlariga yo'llagan murojaatnomasida "investitsiya – bu iqtisodiyot drayveri, o'zbekcha qilib aytganda iqtisodiyotning yuragi desak mubolag'a bo'lmaydi",¹ deb ta'kidlaganlari va bu sohaga doir qabul qilinayotgan qonunlar, qarorlar, farmonlar investitsiyalarning ahamiyati muhim ekanligidan dalolat beradi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Xorijiy investitsiyalar – bu chet el investorlari tomonidan yuqori darajada dromad olish, samaraga erishish maqsadida mutlaq boshqa davlat iqtisodiyotining, tadbirkorlik va boshqa faoliyatlarini qo'llab-quvvatlash hamda rivojlantirish maqsadida jalb etiladigan barcha mulkiy, moliyaviy, intellektual boyliklaridir. Xorijiy investitsiyalarning ikki turi mavjud bo'lib, ular:

1. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar;
2. Portfel investitsiyalar.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarda kapital chiqarishdan asosiy maqsad – bu xorijiy firma ustidan nazorat o'rnatish bo'lsa, portfel investitsiyalarda esa yuqori foyda olish hisoblanadi. Maqsadga erishish yo'llari portfel investitsiyalarda – xorijiy qimmatbaho qog'ozlarni sotib olish bo'lsa, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarda esa – xorijda ishlab chiqarishni tashkil etish hisoblanadi. Shuningdek, daromad shakllari: to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarda tadbirkorlik foydasi, dividendlar, portfel investitsiyalarda esa- dividendlar, foizlardan iborat².

Xalqaro valyuta jamg'armasi qoidalariga ko'ra "To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jismoniy yoki yuridik shaxs xorijiy kompaniyaning kamida 10 foiziga egalik qilganda yuzaga keladi. Agar investorlar 10% dan kamroq ulushga ega bo'lsa, Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (XVJ) uni oddiygina aksiya portfelining bir qismi sifatida belgilaydi. Kompaniyadagi 10% egalik individual investorga xorijiy kompaniyaning nazorat paketini bermasa-da, bu kompaniya boshqaruvi, faoliyati va umumiy siyosatiga ta'sir o'tkazish imkonini beradi"³ deb bayon qilinadi.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning afzalliklari:

- **Iqtisodiy o'sish.** Ish o'rinlarini yaratish to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning eng aniq afzalligi bo'lib, mamlakat (ayniqsa, rivojlanayotgan davlat) to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga intilishining eng muhim sabablaridan biridir. To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantiradi, bu esa ish o'rinlari yaratilishiga olib keladi va mamlakatda ishsizlik darajasini pasaytirishga yordam beradi. Ish bilan bandlikning oshishi daromadlarning oshishiga olib keladi va aholini ko'proq sotib olish qobiliyati bilan jihozlaydi, bu esa mamlakatning umumiy iqtisodiyotini oshiradi.
- **Inson kapitalini rivojlantirish.** Inson kapitali ishchi kuchining bilim va malakasini o'z ichiga oladi. Xodimlar ta'lim va tajriba orqali erishadigan ko'nikmalar ma'lum bir mamlakatning ta'lim va inson kapitalini oshirishi mumkin. Dalgalanma effekti orqali u boshqa tarmoqlar va kompaniyalarda inson resurslarini o'qitishi mumkin.
- **Texnologiya.** Investitsiyani qabul qilib olayotgan mamlakatlar va korxonalar butun dunyo bo'ylab eng so'nggi moliyalashtirish vositalari, texnologiyalari va operatsion amaliyotlaridan foydalanish imkoniyatiga ega. Yangi va takomillashtirilgan texnologiyalarni joriy etish kompaniyaning mahalliy iqtisodiyotga keng tarqalishiga olib keladi, natijada sanoat samaradorligi va boshqa tarmoqlarning samaradorligi oshadi.
- **Eksport hajmini oshirish.** To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar tomonidan ishlab chiqarilgan ko'plab tovarlar nafaqat ichki iste'molga, balki jahon bozorlariga ham chiqariladi.
- **Valyuta kursining barqarorligi.** Mamlakatga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi doimiy valyuta oqimiga aylanadi, bu esa mamlakat Markaziy bankiga barqaror valyuta kurslarini ta'minlaydigan boy valyuta zaxirasini saqlashga yordam beradi.
- **Yaxshilangan va samarali kapital oqimi.** Kapitalning kirib kelishi, ayniqsa, ichki resurslari cheklangan mamlakatlar uchun, shuningdek, jahon kapital bozorlaridan mablag' jalb qilish imkoniyatlari cheklangan davlatlar uchun yanada foydalidir.
- **Raqobatbardosh va chidamli bozorni yaratish.** Xorijiy korxonalarning ichki bozorga kirib kelishini osonlashtirib, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar raqobat muhitini yaratishga, shuningdek, mahalliy monopoliyalarni yo'q qilishga yordam beradi. Sog'lom raqobat muhiti firmalarni o'z jarayonlari va mahsulot takliflarini doimiy ravishda yaxshilashga undaydi va shu bilan innovatsiyalarni rag'batlantiradi. Iste'molchilar, shuningdek, raqobatbardosh narxdagi mahsulotlarning kengroq assortimentiga ega bo'ladilar.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 28-dekabrdagi Oliy Majlis deputatlariga yo'llagan murojaatnomasi.

2 Imomov X.X. Investitsiya. (Darslik). – T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2022. 408-b.

3 www.imf.org – Xalqaro valyuta fondi.



Ko'pgina afzalliklariga qaramay, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning ikkita asosiy kamchiliklari mavjud, masalan:

- **Mahalliy korxonalarni almashtirish.** Walmart kabi yirik firmalarning kirishi mahalliy korxonalarni siqib chiqarishi mumkin. Walmart ko'pincha arzon narxlar bilan raqobatlasha olmaydigan mahalliy korxonalarni haydab chiqarish uchun tanqid qilinadi.
- **Foydani repatriatsiya qilish.** Daromadni repatriatsiya qilishda asosiy tashvish shundaki, firmalar daromadlarni qabul qiluvchi mamlakatga qayta investitsiya qilmaydi. Bu esa mezbon davlatdan katta miqdorda kapital chiqib ketishiga olib keladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI


Ushbu maqolada ma'lumotlarni shakllantirish jarayonida ilmiy yondashuv, statistik, tahlil va sintez usullaridan foydalanilgan bo'lib, maqolada keltirilgan iqtisodiy ko'rsatkichlar yillar kesimida qiyosiy tahlil qilingan. Shuningdek, maqolaning tahlil qisimida nafaqat mamlakatimizdagi iqtisodiy-moliyaviy ko'rsatkichlarning ichki manbalaridan balki, bir qator xorij manbalarining ma'lumotlaridan ham iqtisodiy ko'rsatkichlarni tahlil qilish jarayonida foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Mamlakatimizda 2017–2023-yillar davomida investitsiyalarni jalb qilish, ayniqsa to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni rag'batlantirish borasida sezilarli darajadagi islohotlar amalga oshirildi. Misol uchun mamlakatimizda xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish hamda investorlar uchun qulay shart-sharoit yaratishga yo'naltirilgan 23 ta yirik chora tadbirlar amalga oshirildi.

Jumladan, yangi tahrirdagi "Investitsiya va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi, "Maxsus iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi qonunlar, "Respublika iqtisodiyotiga to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, "O'zbekiston respublikasi investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi xorijiy investitsiyalarni jalb etish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarorlar, valyuta operatsiyalari bo'yicha joriy qilingan qoidalar buning yaqqol misolidir.

Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish borasida amalga oshirilayotgan chora tadbirlar natijasida 2017–2023-yillar oralig'ida mamlakatimiz iqtisodiyotiga jalb qilinayotgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar dinamikasida sezilarli o'zgarish qayd etilganligi 1-diagrammada keltirilgan ma'lumotlar orqali ham ko'rishimiz mumkin. 1-diagramma ma'lumotlariga ko'ra 2017-yildan 2023-yilga kelib to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar hajmi sezilarli darajada oshganligini ya'ni: 2246,5 mln.AQSh dollaridan 7185,9 mln.AQSh dollariga yetganligini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, "Investitsiya erkinligi subindeksi"ga ko'ra mamlakatimiz 2017-yilda ushbu indeks ro'yxatida 0 o'rindan 2023-yilga kelib 60 o'rinni⁴ egallaganligini ham aytib o'tishimiz lozim. Bu ham mamlakatimizdagi investitsion muhit yuqori darajalarda yaxshilanayotganligidan dalolat beradi.




1-diagramma: 2017–2023-yillarda O'zbekiston iqtisodiyotiga jalb qilingan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (mln.AQSh doll.)⁵

⁴ Meros jamg'armasi (The Heritage Foundation) ma'lumotlari.

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika Agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.



2-diagrammada keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning Yalpi ichki mahsulot tarkibidagi ulushi ham keskin oshib borayotganligini ko'rishimiz mumkin. 2017-yilda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning YalM tarkibidagi ulushi 3,6%ni tashkil qilgan bo'lsa 2023-yilda ushbu ko'rsatkich 7,90%ni tashkil qilgan. Asosiy kapitalga investitsiyalarning YalMdagi ulushi 2017-yilda 22,7%ni, 2023-yilda esa 33,0%ni tashkil qilgan.



2-diagramma: 2017–2023-yillarda O'zbekiston iqtisodiyotiga jalb qilingan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning YalMdagi ulushi (foizda)⁶

Shuningdek, mamlakatimizda faoliyat olib boruvchi korxonalar soni 2017 yilda 285,5 mingtani, 2023-yilda esa 485,0 mingtani, xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 2017-yilda 5,5 mingtani tashkil qilgan bo'lsa 2023-yilda ushbu ko'rsatkich 14,1 mingtani tashkil qilib 2027-yilga nisbatan 2,6 marta oshganligini bilishimiz mumkin.

Mamlakatimizda investitsion jozibadorlikni oshirish, investorlarning faoliyat darajasini kengaytirish va mavjud shart-sharoitlar va imkoniyatlardan samarali foydalanish maqsadida bugungi 2024-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra jami 21 ta maxsus iqtisodiy zona, 328 ta kichik sanoat zonasi, 23 ta texnopark o'z faoliyatlarini olib bormoqda. Yil oxiriga borib ularning sonini yanada oshirish investitsiya sohasida amalga oshirilishi zarur bo'lgan chora-tadbirlar tarkibiga kiritilgan.

2023-yilning yanvar-dekabr oylarida jami 352,1 trln. so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilib, 2022-yilning mos davriga nisbatan 122,1 % ni tashkil etdi. Shuningdek, asosiy kapitalga investitsiyalar tarkibida kafolatlanmagan va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar 21,2 trln.so'mni, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy investitsiyalar hajmi 21,2 trln.so'mni, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar esa 84,3 trln so'mni tashkil qildi (1-jadval).

1-jadval: O'zbekiston Respublikasida 2023-yil yakuni bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning manbalari⁷

№	Moliyalashtirish manbalari	Hajmi, trln.so'mda	O'sish sura'ti o'tgan yilga nisbatan foizda
1.	Respublika budjeti	20,4	88,6%
2.	Kafolatlanmagan va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar	82,4	129,2%
3.	Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi	1,6	58,4%
4.	O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlar	21,2	130,3%
5.	Korxona mablag'i	84,9	97,3%
6.	Aholi mablag'lari	33,3	108,9%
7.	To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar	84,3	196,4
8.	Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	22,3	117,9%
9.	Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	1,7	52,9%

⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika Agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika Agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.



Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ham ayonki Kafolatlanmagan va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 129,2%, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlarning o'sish sur'ati esa 130,3% ni, To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning o'sish sur'ati esa 196,4 % ni tashkil qilishi ushbu sohaga yaratib berilayotgan islohotlar samarali ta'sir ko'rsatayotganligidan xabar beradi. Shuningdek, jalb qilinayotgan investitsiyalarning aksariyat qismi nafaqat iqtisodiy o'sishni ta'minlashga balki iqtisodiy jihatdan rivojlanishga, aholi turmush farovonligini oshirishga, ta'limga, innovatsiyalarga, yashil iqtisodiyotni rivojlantirishga xizmati qilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki mamlakatimizda investitsiyalarni faol jalb qilish borasida juda ko'plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, ichki hamda xorijiy investorlarni himoya qilishning nafaqat iqtisodiy, balki huquqiy, siyosiy, ijtimoiy tomonda himoya qilish borasida ham ko'plab chora-tadbirlar, qonunlar, qarorlar ishlab chiqilib amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda investitsiya sohasida juda ko'plab islohotlar amalga oshirilayotganligiga qaramay, bu sohada mavjud kamchiliklarni e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi. Bunga misol tariqasida: iqtisodiyotimizga jalb qilinayotgan investitsiyalarning tarmoqlar hamda hududlar kesimida nomutanosib taqsimlanayotganligini ko'rishimiz mumkin. Misol uchun asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi bo'yicha hududlar miqyosidagi yuqori va quyi o'rinlarni egallagan 3 ta hudud qiymatlari o'rtasidagi farq 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida deyarli 3,7 baravarni, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hamda kreditlar orasidagi tafovut esa 2,9 baravarni tashkil qilganligini ko'rishimiz mumkin.

Bunga asosiy sabab esa boshqa hududlarda shuningdek, tarmoqlarda investorlar uchun xalaqit berayotgan infratuzilma bilan bog'liq, soliq sohasidagi nomutanosibliklar va pul-kredit sohasidagi kechikishlarni, korupsion holatlarni misol qilib olishimiz mumkin.

Yuqorida keltirilgan muammolarni bartaraf qilish uchun quyidagi taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish lozim:

- chekka hududlar investorlar uchun qulay infratuzilma obyektlarini, transport xizmatlarini yo'lga qo'yish;
- geografik jihatdan noqulay joylashgan hududlar uchun maxsus byudjet-soliq hamda pul-kredit siyosatini ishlab chiqish;
- tabiiy resurslar jihatdan ham ta'minlangan hududlarda investitsiyalarni xizmat ko'rsatish ayniqsa tibbiyot, ta'lim, masofadan turib xizmat ko'rsatish sohalariga yo'naltirish bo'yicha startap loyihalarni joriy qilish;
- jahon talablariga mos keladigan kadrlarni tayyorlash uchun davlat kafolati ostidagi investitsiyalarni yanada qo'llab quvvatlash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrda O'RQ - 598-sonli "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. lex.uz/docs/-4664142
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. president.uz/oz/lists/view/4057
3. Imomov X.X. Investitsiya. (Darslik). – T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2022. 408b.
4. Investitsiya mahorati (Matn): qo'llanma / M.P. eshov, Ch.S.Mirzayev, A.N.Tursunov. – T.: "Manaviyat", 2020. 168-bet.
5. Elvira Sojli, Wing Wah Tham. —The Impact of Foreign Government Investments: Sovereign Wealth Funds and Investments in the United States// In Institutional Investors in Global Capital Markets. Published online: 8 March 2015; 207-243. www.scopus.com.
6. Foreign Direct Investment Theory, Evidence and Practice. RMIT University, Imad Moosa. DOI: 10.1057/978140397493.
7. O'zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga investitsiyalar bo'yicha 2023-yil yakuni uchun hisobot - www.stat.uz.
8. www.imf.org – Xalqaro valyuta fondi.
9. www.heritage.org – The Heritage Foundation tashkilotining rasmiy internet sahifasi.
10. www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika Agentligi.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.